

AKULALAR TURKUMI (SELACHOMORPHA)**Abdurayimova Xurshida Zokirjon qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti

Biologiya yo'nalishi 01-guruh talabasi.

Yo'ldashev Abduvali Alisher o'g'li

Andijon davlat pedagogika institute, Biologiya fani o'qtuvchisi.

*abduraimovaxurshida04@gmail.com**<https://doi.org/10.5281/zenodo.14061411>*

Annotatsiya. Ushbu tezisda akulalar turkumi ko'payishi, hayot tarzi, turlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: sterotserkal, gigant akula, plakoid, tarpedasimon.

SHARK FAMILY (SELACHOMORPHA)

Abstract. This thesis provides information on the reproduction, lifestyle, and species of sharks.

Key words: sterocercal, giant shark, placoid, tarpedoid.

СЕМЕЙСТВО АКУЛ (SELACHOMORPHA)

Аннотация. В диссертации приведены сведения о размножении, образе жизни и видах акул.

Ключевые слова: стероцеркал, гигантская акула, плакоид, тарпедоид.

Akulalar (*Selachomorpha*) — tog‘ayli baliqlar sinfi plastinka jabralilar kenja sinfining katta turkumi. Tanasi tarpedasimon shaklda, suv tubida yashovchi akulalar yassi, uzunligi 15-40 sm dan (tikanli qora akulalar) 15-20 m gacha (gigant akulalar), og‘irligi 14 t gacha (gigant va kit akulalar). Tanasi plakoid tangachalar bilan qoplangan. Akulalar suv ostida hayot kechiradi. Suv ostida bosm kuchli bo‘lib, suzgich pufagi yorilib ketadi.



Shuning uchun akulalarda suzgich pufagi bo‘lmaydi. Jabra yoriqlari 5 (ba’zi turlarida 6-7) tadan bo‘lib, boshining ikki yonida, og‘zi boshining ostida tanasiga ko‘ndalang joylashgan. Dum suzgichi kuchli rivojlangan, har xil kattalikdagi (sterotserkal) ikkita bo‘lakdan iborat. Tishlari ko‘p, uchi o‘tkir.

Yirtqich akulalarning tishlari juda yirik. Ko‘pchilik akulalar baliqlar, mollyuskalar va boshqa hayvonlar bilan, kit va gigant akulalar esa plankton bilan oziqlanadi. Akulalar 6 turkum (har xil tishlilar, ko‘p jabralilar, lamnosimonlar, katransimonlar, arraburunsimonlar, skvatinsimonlar), 20 oilani o‘z ichiga oladi.

Akulalar Orol va Kaspiy dengizidan boshqa hamma dengiz va okeanlarda, ayrim turlari chuchuk suv havzalari (Gang va Amazonka daryolari, Nikaragua ko‘li)da yashaydi. Qora va Uzoq Sharq dengizlarida tikanli qora akulalar, ya’ni katran, Shimoliy va Uzoq Sharq dengizlarida seld akulalar, Shimoliy dengizlarda qutb akulalar tarqalgan. Akulalar ayniqsa tropik dengizlarda xilmashil bo‘ladi. Ko‘pchilik akulalar ovlanadi, jigaridan baliq yog‘i olinadi, go‘shti ovqat uchun ishlatiladi. Skeletidan baliq yelimi tayyorlanadi. Ko‘pchiligi yirtqich akulalar (yo‘lbars akulalar, karharodon, bolg‘abosh akulalar, makoakulalar va boshqalar), asosan baliqlar va suvdagi umurtqasizlar bilan oziqlanadi. Ba’zi turlari planktonlar bilan oziqlanadi.

- Akulalar skeletli baliqlar bo‘lib, ularning tanasi aerodinamik shaklga ega.
- O‘tmas tishlari ko‘p qator bo‘lib joylashgan, ular doimiy yangilanib turadi.
- Akulalar tirik tug‘uvchi va tuxum qo‘yuvchi bo‘lishi mumkin.
- Ko‘payish jarayoni turli turlarda farq qiladi.
- Dunyo bo‘ylab 500 dan ortiq akula turlari mayjud.
- Har bir turi o‘ziga xos ekologik va biologik xususiyatlarga ega.

Akulalar dengiz ekotizimida muhim ro‘l o‘ynaydi. Ular oziq zanjirining yuqori qismida joylashgan bo‘lib, populyatsiyalarni muvozanatda saqlashda muhim ahamiyatga ega. Akulalar ko‘pincha baliq ovlash va muhitning ifloslanishi sababli xavf ostida. Ko‘plab turlar yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lib, ularni muhofaza qilish choralar ko‘rilmoxda.

REFERENCES

1. J. Laxonov “Umurtqalilar Zoologiyasi” Toshkent nashri 90-110 bet
2. S. Dadayev K. Sopirov “Umurtqalilar Zoologiyasi” Toshkent nashri 96-122 betlar
3. “Zoologiya” O Mavlinov 2021yil Toshkent nashri 2-3 bet 105-110 betlar.
4. “O’zbekistonning umurtqali hayvonlarni aniqlagichi” J.Laxanov, Toshkent nashri 1988;
5. <https://www.wikipedia.org/Akulalar>